

MUSTAQIL O'ZBEKISTONDA MILLIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH BORASIDAGI AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR

Muhammadjonov Shohrux Asliddin o'g'li

Andijon Davlat Universiteti

Tarix fakulteti 3-kurs talabasi

muhammadjonobzubayr@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11173210>

Annotatsiya: Milliy xavfsizlik manfaatlarni himoyalashning umumiy shakli sifatida manfaat va ehtiyojlarni qondirish, moddiy, ma'naviy, umuminsoniy qadriyatlardan bahramand bo'lish va farovonlikka intilish to'g'risidagi barcha tasavvurlarni ifodalaydi. Mamlakatning milliy xavfsizligi uning milliy manfaatlarini turli siyosiy, harbiy, iqtisodiy, ekologik, g'oyaviy va boshqa omillar ta'siri va tahdidlardan himoya qilishga yo'naltiriladi. SHuning uchun ham milliy xavfsizlik tarkibi murakkab tuzilishga ega bo'lib, siyosiy, harbiy, iqtisodiy, ekologik, g'oyaviy, mafkuraviy, axborot xavfsizligini o'z ichiga oladi. Mustaqillikdan keyin milliy xavfsizlik bo'yicha qanday ishlar amalga oshirilayotgani va ularni amalda qo'llanilganligi maqolada yoritilib o'tiladi.

Kalit so'zlar: xavfsizlik, xalq, mafkura, axborot, harbiy, iqtisod, siyosat, qonun.

Davlatimizning harbiy sohadagi tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari 1996-yil 26-dekabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosati faoliyatining asosiy tamoyillari haqidagi Qonunda» mujassamlangan. Qonunda «O'zbekiston hech qanday harbiy-siyosiy bloklarda ishtirok etmaydi va harbiy-siyosiy blokka transformatsiya qilingan vaqtta har qanday xalqaro tashkilotlarning chiqish huquqini o'z ixtiyorida qoldiradi deb qonuniy rasmiylashtirilgan. Bu Qoran O'zbekistomning tinchliksevarlik siyosatini, uning dinyo hamjamiyatida integratsiyaga intilishlarini tasdiqlaydi. O'zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari harbiy tuzilmalar, harbiy o'quv yurtlari va boshqa harbiy qismlardan iborat. U O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini, hududiy yaxlitligini, aholisining tinch hayot kechirishini va xavfsizligini ta'minlashga qaratilgandir.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari davlatni himoya qilishda butun mudofaa tizimining asosini tashkil etadi va tarkibiga quyidagilar kiradi:

Quruqlikdagi qo'shinlari.

Harbiy-havo va lava hujumidan mudofaa qo'shinlari.

Maxsus qo'shinlar

Milliy gvardiya brigadalari.

Chegara va ichki qo'shinlar

Milliy xavfsizlik xizmatlari

Favqulodda vaziyatlar vazirligi va boshqalar.

1999-yilgacha Chegara qo'shinlari Milliy Xavfsizlik xizmati tarkibida bo'lgan. 1999-yil 13-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga binoan O'zbekiston Respublikasi Davlat chegaralarini himoya qiluvchi qo'mita tashkil etildi. Qumili Kuchlami joylashtirish (dislokatsiya) O'zbekiston Respublikasi bududlari, chegaralari va havo bo'shliqlarining mustahkam mudofaasini umumiy strategik maqsad asosida ta'minlashdan kelib chiqib belgilanadi va harbiy doktrina talablariga muvofiq strategik va operativ rejalar bo'yicha amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi chaqiriq o'ninchi

sessiyasida (2002-yil 12-dekabr) Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari rezervidagi xizmat to'g'risida»gi qonunlar qabul qilindi. Mazkur qonunlarga ko'ra, Qurolli Kuchlar safidagi muddatli xizmat bir yarim yildan bir yilga qisqartirildi. Oliy o'quv yurtlari baruvchilari esa xizmatga faqat to'qqiz oyga chaqiriladigan bo'ldi. Davlat tuzilmasi va davlat chegaralari daxlsizligini ishonchli himoya qilish, inson huquqlari va erkinliklariga og'ishmay rioya etish, jamiyatdagi millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik, tinchlik va osoyishtalik demokratik huquqiy davlat qurishning hamda mamlakatni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muhim shartlaridan hisoblanadi. Mamlakatni rivojlantirishning hozirgi bosqichidagi ustuvor yo'nalishlar, davlat va ijtimoiy hayotning barcha sohalarini isloh qilish borasidagi vazifalarni samarali amalga oshirish davlat xavfsizligini ta'minlashning sifat jihatdan yangi tizimini shakllantirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991- yil 6-sentabrdagi Farmoni bilan. Mudofaa ishlari vazirligi tashkil etildi. 1991-yil 26- sentabrda O'zbekiston Prezidentining Farmoni bilan O'zbekiston SSR Davlat Xavfsizlik Qo'mitasi (DXQ) O'zbekiston uning o'rniga Respublikasi Prezidentiga bo'ysunadigan O'zbekiston Respublikasi Milliy Xavfsizlik Xizmati (O'zRMXX) tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi va Milliy Xavfsizlik Xizmati oldiga mamlakat milliy xavfsizligi va davlat mudofaasini tashkil etishni ta'minlashdek g'oyat murakkab va avni paytda olijanob vazifa qo'yildi. Vaziyat milliy xavfsizlikning keng qamrovli konsepsiyasini ishlab chiqishni, uning huquqiy asoslarini belgilab beruvchi qonunlar yaratishni taqozo etardi. 1996-yil 24-aprelda Oliy Majlisning beshinchi sessiyasida to'rt bo'lim yigirma sakkiz moddadan iborat bo'lgan "Milliy xavfsizlik to'g'risida" gi Qonun loyihasi muhokama qilindi. Mazkur loyiha Milliy xavfsizlik tizimini shakllantirish, milliy xavfsizlikni ta'minlash borasidagi vazifalar va ularni amalga oshirish prinsiplarini huquqiy normalarga belgilab beradigon, butunlay yangicha hujjat sifatida ko'rib chiqildi. 1997-yil avgust oyida Oliy Majlisning birinchi chaqiriq to'qqizinchi sessiyasi " O'zbekiston Respublikasi milliy xavfsizlik konsepsiyasi to'g'risida" gi Qonunni qabul qildi.

«Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi (1996- yil), «O'zbekiston Respublikasining pul tizimi to'g'risida»gi (1993-yil), «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatdan to'g'risida»gi (2000-yil), Sug'urta to'g'risida»gi (1993-yil), «Birjalar va birja faoliyati to'g'risida»gi (1993-yil), Auditorlik faoliyati to'g'risidagi (2000-yil), «Qimmatli qog'ozlar va fond bujasi to'g'risida»gi (2000-yil) va boshqa qonunlar qabul qilindi.

Milliy davlat xavfsizligi quyidagi turlarga bo'linadi:

- Siyosiy xavfsizlik
- Harbiy xavfsizlik
- Axborot xavfsizligi
- G'oyaviy xavfsizlik
- Ekologik xavfsizlik
- Iqtisodiy xavfsizlik

Davlat tuzilmasi va davlat chegaralari daxlsizligini ishonchli himoya qilish, inson huquqlari va erkinliklariga og'ishmay rioya etish, jamiyatdagi millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik, tinchlik va osoyishtalik — demokratik huquqiy davlat qurishning hamda mamlakatni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muhim shartlaridan hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati mamlakatning konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy

yaxlitligi, iqtisodiy va mudofaa salohiyatini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilish tizimida alohida o'rin tutadi. Shu bilan birga, Milliy xavfsizlik xizmatining maqomi, vazifalari va vakolatlari doirasini aniq belgilab beruvchi qonun hujjati yaratilmay turib, unga milliy xavfsizlikni ta'minlashning barcha jihatlarini yuklatilgani ushbu idoraning davlat organlari faoliyatining barcha sohalariga asossiz aralashuviga shart-sharoit yaratib berdi. Mamlakatni rivojlantirishning hozirgi bosqichidagi ustuvor yo'nalishlar, davlat va ijtimoiy hayotning barcha sohalarini isloh qilish borasidagi vazifalarni samarali amalga oshirish davlat xavfsizligini ta'minlashning sifat jihatidan yangi tizimini shakllantirishni taqozo etadi. O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligi va manfaatlarini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilish borasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish maqsadida, shuningdek, 2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi vazifalariga muvofiq belgilandi.

1. O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati sifatida qayta tashkil etilsin.

Belgilansinki, O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmatining huquqlari, majburiyatlari va shartnomalari bo'yicha huquqiy voris hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligi va manfaatlarini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qiluvchi maxsus vakolatli organ etib belgilansin.

2. O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati (bundan buyon Xizmat deb yuritiladi) faoliyatini tashkil etishning ustuvor yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi. Xizmatning maxsus vakolatli davlat xavfsizlik organi sifatidagi huquqiy maqomi, vakolatlari va faoliyat yo'nalishlarini aniq belgilab beruvchi mustahkam qonunchilik bazasini yaratildi va bugungi kundagi xavf-xatarlar va tahdidlarga qarshi kurashishning ta'sirchan shakl hamda uslublarini joriy etilgan. Yuzaga kelayotgan ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy vaziyatni inobatga olgan holda davlat xavfsizligini ta'minlash borasidagi vazifalarni bajarishda mavjud kuch hamda vositalardan samarali foydalanish imkonini beruvchi tashkiliy tuzilmani shakllantirildi. Xizmat faoliyatini davlat xavfsizligini ta'minlash ishlarining shakl va uslublari, shuningdek, Xizmat harbiy xizmatchilarining idoraviy mansubligi haqidagi ma'lumotlar oshkor bo'lishini istisno etuvchi konspiratsiya tamoyili asosida tashkil etildi. Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga og'ishmay rioya etilishini kafolatlaydigan ta'sirchan mexanizmlarni joriy qilindi. Xizmatning asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari etib quyidagilar belgilangan. O'zbekiston Respublikasining davlat xavfsizligi va manfaatlarini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilishni ta'minlash, mazkur sohada qonuniylik va qonun ustuvorligini mustahkamlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va ularga barham berildi.

O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati (o'zbekcha: O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati) — O'zbekistonning sobiq respublika maxsus xizmat ijroiya organi bo'lib, o'z vakolatlari doirasida 1991-yil 26-sentabrdan 2018-yil 14-martgacha O'zbekiston Respublikasining milliy va davlat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha vazifalarni bajargan. 2018-yil 29-martdan tashkilot O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati sifatida qayt tashkil etildi. Tuzilma rahbari rais, organing o'zi esa bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo'ysunadi.

Siyosiy xavfsizlik - har qanday siyosiy bosim, tahdidlarga qarshi himoya tizimi. U inson huquqlari bilan ta'minlanganligi, himoyalanganligi bilan xarakterlanadi. Har bir davlat ichki va tashqi siyosiy barqarorlikni ta'minlashdan hamda xalqaro munosabatlarda to'laqonli ishtirok etishdan manfaatdor. Shu nuqtai nazardan siyosiy xavfsizlikning mohiyati ichki va tashqi siyosatni yuritish imkoniyati bilan belgilanadi. Siyosiy xavfsizlikning maqsadi bevosita davlat rejimiga bog'liq. Shu orqali mamlakatda fuqarolarning huquq va erkinliklari, demokratik qadriyatlar, me'zonlar, siyosiy institutlar faoliyati va ularning manfaatlar muvozanati davlat instituti foydasiga hal etildi.

Shuningdek, bugungi kunda ba'zi davlatlarning o'z xavfsizligini ta'minlashga qurbi yetmasligi natijasida hududiy xavfsizlikning ahamiyati yanada o'sdi. E'tiborli jihati shuki, xavfsizlikni mintaqalashtirish negizida xalqaro huquqiy me'yorlar, davlatlararo siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va harbiy sohalaridagi hamkorlik va integratsiya orqali o'zaro xavfsizlikka erishish institutlarini yaratish g'oyalari paydo bo'ldi. Bu g'oyalar XX asrning ikkinchi yarmida vujudga kelgan "umumiy xavfsizlik" (common security), "xavfsizlik kompleksi" (security complex), "hamjamiyat xavfsizligi" (security community) va boshqa konsepsiyalarda o'z aksini topgan. Shunday qilib, xalqaro munosabatlar tizimida xavfsizlik konsepsiyasiga An'anaviy va keng ma'noli yondashuvlar "harbiy xavfsizlik" tushunchasini tadqiq etishning metodologik asoslarini shakllantirish jarayoniga bevosita ta'sir etdi.

Axborot xavfsizligi (inglizcha: Information Security, shuningdek, inglizcha: InfoSec) — axborotni ruxsatsiz kirish, foydalanish, oshkor qilish, buzish, o'zgartirish, tadqiq qilish, yozib olish yoki yo'q qilishning oldini olish amaliyotidir. Ushbu universal kontsepsiya ma'lumotlar qanday shaklda bo'lishidan qat'iy nazar (masalan, elektron yoki, jismoniy) amal qiladi. Axborot xavfsizligini ta'minlashning asosiy maqsadi ma'lumotlarning konfidensialligi, yaxlitligi va mavjudligini muvozanatli, qo'llashning maqsadga muvofiqligini hisobga olgan holda va tashkilot faoliyatiga hech qanday zarar yetkazmasdan himoya qilishdir. Bunga, birinchi navbatda, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar, tahdid manbalari, zaifliklar, potensial ta'sirlar va mavjud xavflarni boshqarish imkoniyatlarini aniqlaydigan ko'p bosqichli xavflarni boshqarish jarayoni orqali erishiladi. Bu jarayon xavflarni boshqarish rejasining samaradorligini baholash bilan birga olib boriladi.

Vazirlar Mahkamasining 18.02.2020 yildagi 95-son qarori bilan Ekologik xavfsizlik to'g'risidagi umumiy texnik reglament (keyingi o'rinlarda – Texnik reglament) tasdiqlandi. U rasmiy e'lon qilingan kundan boshlab 18 oy o'tgach amalga kiritiladi. Atrof tabiiy muhit holatining barqarorligi va yaxshilanishi mavjud xo'jalik va boshqa faoliyat ob'yektlarining atrof tabiiy muhitga ko'rsatayotgan salbiy ta'sirining ruxsat etilgan bosqichma-bosqich kamayib boradigan darajalariga erishish eng yaxshi qulay texnologiyalarni qo'llanishi bilan ta'minlanadi.

Iqtisodiy xavfsizlik - mamlakat, hudud, firma, kompaniyaning iqtisodiy inqirozga uchrash xavfidan himoya qilish bo'yicha ko'radigan chora-tadbirlari majmui. Rivojlangan mamlakatlarda Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash maqsadlarida yirik firma, kompaniyalarda maxsus xizmatlar tashkil qilinadi. Ular bozorlarni o'rganish, talab va taklifni prognozlash, ilmiy-texni-ka taraqqiyotini kuzatish va b. ishlarni bajaradilar (qarang Marketing). Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda mahsulot turini munta-zam yangilab turish, raqobatdor mahsulotlarni iqtisodiy xavfsizlikni harajatlarni qisqartirish muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy xavfsizlik - bu iqtisodiyotning shunday holatidirki, bunda uning barqaror o'sishi, ijtimoiy

ehtiyojlarining maqbul darajada qanoatlantirilishi, boshqaruvning yuksak sifati, iqtisodiy manfaatlarni milliy va xalqaro darajada himoyalash ta'minlanadi.

References:

1. I. Karimov O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. -T.: O'zbekiston,
2. I. Karimov . O'zbekiston XXI asr bo'sagasi: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O'zbekiston, 1997
3. I.Karimov O'zbekiston XXI asga intilmoqda. - T: O'zbekiston, 1999
4. Otamuratov S. Globalashuv va milliy-ma'naviy havfsizlik. -T.: 2013.
5. Жуманиёзов Х., Собирова М., Нигманова У. Глобаллашув асослари. -Т.: 2015.
6. Karimov M., Turg'unov A. va boshqalar. Axborot xavfsizligi asoslari. -T.: 2013. 4. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. Т.: 2003. - № 1.
7. Алока ва ахборотлаштириш соҳасида ахборот хавфсизлиги: атамалар ва таърифлар. Тармоқ стандарти: TSt 45-010.: 2010.
8. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. -T.: Davlat ilmiy nashiryoti, 2000,
9. Ғаффарова Г. Ахборот ва ахборотлаштириш жараёнларининг фалсафий-методологик муаммолари. Фалс. фан. номз. ...дис.Тошкент, 2008